

**TALABALARINING INDIVIDUAL XUSUSIYATLARNI RIVOJLANISH
JARAYONI***Jamalova Nafisa Utkirovna**Samarqand davlat chet tillar instituti**Innovatsion ta'lim texnologiyalari va pedagogikasi kafedrası o'qituvchisi**n94150988@mail.com*

Annotatsiya. Bu maqolada jamiyatimizda insonlarning shaxs sifatida shakllanishi, ta'lim-tarbiya jarayonida talabalarga shaxsga yo'naltirilgan texnologiyalarining qo'llanishi haqida fikr yuritiladi. Individ, shaxs, individallik tushunchalarining shuningdek, shaxsning ma'lum bir obraz sifatida namoyon bo'lishi haqida ma'lumot berilgan.

Bugungi kunda shaxs rivojlanishi, barkamol avlod tarbiyasi va inson omili masalasi ta'lim islohotlarining asosiy mazmunini tashkil etib, oliy ta'lim muassasalarida yoshlarni yetuk shaxs sifatida shakllantirish, yoshlar bilan ishlash tizimini takomillashtirishga qaratilgan islohotlar natijasida yoshlarga jamiyatdagi o'z o'rnini topishiga ko'maklashish amalga oshiriladi, ularning shaxs sifatida o'z o'rnini topishlari uchun katta imkoniyatlar yaratiladi. **O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev BMT Bosh Assambleyasining 72-sessiyasida so'zlagan nutqida: "Sayyoramizning ertangi kuni, farovonligi farzandlarimiz qanday inson bo'lib kamolga yetishi bilan bog'liq. Bizning asosiy vazifamiz – yoshlarning o'z salohiyatini namoyon qilishi uchun zarur sharoitlar yaratishdan iborat"** [1] degan fikrni bildirgan.

Adabiyotlarimizda shaxs tushunchasiga quydagicha ta'riflar berilgan Shaxs - bu uning ong va faoliyatining individual qobiliyatlari va individual ifodalangan shaxsning intellektual madaniy axloqiy va ixtiyoriy xususiyatlarining dinamik, nisbattan barqaror yaxlitligi. Shaxs bu umumiy ijtimoiy va axloqiy, maxsus sinf, milliy va alohida shaxsning dialektlik birligi. Maxsus tarixiy holatlarda, shaxsiyat ijtimoiy tizim tomonidan belgilangan yaxlitlik kabi harakat qiladi. Shaxs bu ijtimoiy hodisa sifatida shaxsning haqiqati va turli xil ijtimoiy aloqalarning turli xil mavzularidir. Shaxsiylikning ijtimoiy fazilatlari uning harakatlarida, munosabatlarida namoyon bo'ladi. Ushbu harakatlarga ko'ra, ma'lum darajada shaxsning ichki dunyosida, ijobiy va salbiy fazilatlarning ma'naviy va axloqiy fazilatlarga baho berish mumkin. Individ lotincha "individium" so'zidan kelib chiqqan bo'lib "bo'linmas", "alohida", "yagona" ma'nolarini anglatadi. Shaxsning shakllanishida harakat o'ziga xos omil sanaladi. Go'dak (chaqaloq) ham turli harakatlarni bajaradi. Biroq bu harakatlar keyinchalik

reflekslar bo'lib, ongli ravishda emas balki shartsiz va shartli qo'zg'atuvchilarga javob tarzida yuz beradi.

«*Individ*» tushunchasi umuman «odam» degan tushunchani to'ldirib, uning ijtimoiy va biologik mavjudot sifatida mavjudligini tasdiqlaydi va uni bir tomondan, boshqa odamlardan farqlovchi belgi va xususiyatlarini o'z ichiga oladi, ikkinchi tomondan, o'ziga va o'ziga o'xshashlarga xos bo'lgan umumiy va xarakterli xususiyatlarni qamrab oladi. Demak, individ — insonga aloqadorlik faktini tasdiqlovchi ilmiy kategoriyadir.

Odam bolasini individ deyiladi. Biz hamma kishilarni-normal odamlarni yangi to'g'ilgan chaqaloqni, aqli zaiflarni individga kiritamiz. Inson: Biz har qanday dunyoga kelgan odamni inson deb atashamiz mumkin, xoh u nogiron bo'lsin xoh yangi to'g'ilgan chaqaloq bo'lsin xoh u qari bo'lsin yoki ayol va erkak. Shaxs bilan inson o'rtasida bir muncha farqlar bor bu to'g'risida maqolamizning davomida aytib o'tamiz.

Odam tashqi qiyofasi, bo'yi-basti bilan boshqa biror kimsaga o'xshashi mumkin, lekin fe'li, mijozi va shaxs sifatidagi xususiyatlari nuqtai nazaridan aynan bir xil insonlar bo'lmaydi. Hattoki, olimlar bitta tuxumda rivojlangan egizaklarda ham juda ko'p jihatdan aynan o'xshashlikni qayd qilishgan, shaxsiy sifatlaridagi korrelyasiyada esa ba'zi tafovutlar aniqlangan. Shaxs-qaytarilmas, u o'z sifatleri va borligi bilan noyobdir. Ana shu qaytarilmaslik va noyoblikning asosida uning indivi-dual psixologik xususiyatlari majmui yotadi.

Chunki qobiliyatli odamdan avvalo jamiyat manfaatdor, qolaversa, o'sha insonning o'zi ham qilgan har bir harakatidan o'zi uchun naf ko'radi. Qobiliyatlar muammosi eng avvalo inson aqlu-zakovatining sifati, undagi malaka, ko'nikma va bilimlarning borligi masalasi bilan bog'liq. Ayniqsa, biror kasbning egasi bo'lish istagidagi har bir yoshning aqli va intellektual salohiyati uning malakali mutaxassis bo'lib yetishishini kafolatlagani uchun ham psixologiyada ko'proq qobiliyat tushunchasi aql zakovat tushunchasi bilan bog'lab o'rganiladi.

Irodaviy sifatlar — har birimizning o'z oldimizga maqsad qo'yib, unga erishish yo'lidagi qiyinchiliklarni yengishimizni ta'minlovchi ma'lum sifatlarimiz majmuini o'z ichiga oladi. Emosiyalar va motivasiya esa atrofimizda sodir bo'layotgan hodisalar, bizni o'rab turgan odamlar va ularning xatti-harakatlarini ruhan qanday qabul qilib, ularga bildiradigan hissiy munosabatlarimizni bildiruvchi sifatlarimiz bo'lib, ular ayni vaziyatlardagi real xolatlarimizdan va ularning ongimizda aks etishidan kelib chiqadi. Demak, individual sifatlar bizning ongli hayotimizning ajralmas qismi, idrokimiz, xotiramiz va fikrlarimiz yo'naltirilgan muhim predmet ekan. Chunki aynan ular bizning turli faoliyatlarni amalga oshirish va ishlarni bajarishdagi individual uslubimizga bevosita aloqador.

Qobiliyatlar — shaxsdagi shunday individual, turg'un sifatlarki, ular odamning turli xil faoliyatdagi ko'rsatgichlari, yutuqlari va qiyinchiliklari sabablarini tushuntirib beradi.

Temperament — insonning turli vaziyatlarda narsa, hodisa, xolatlar va insonlarning xatti-xarakatlariga nisbatan reaksiyasini tushuntirib beruvchi xususiyatlari majmuidir.

Xarakter — shaxsning alohida insonlar va insonlar guruhi, o'z-o'ziga, vaziyatlar, narsalar va hodisalarga nisbatan munosabatlaridan orttiradigan sifatlarini o'z ichiga oladi.

Xulosa qilib shuni ta'kidlash lozimki, ajoyib shaxsiy fazilatlarga asoslangan ta'limimiz, jahon fanning shakllanishiga va rivoji o'zining munosib xissa qo'shgan bilan ajralib turadi. Abu Ali ibn Sino, A.Beruniy, Al-Xorazmiy, M.Ulug'bek, Al-Buxoriy, A.G'ijduvoniy, B.Naqshbandiy, A.Navoiy, Z.Bobir kabi buyuk ajdodlarimizning ta'limoti, jahon sivilizatsiyasidagi bebaho ulushini bugungi kunda butun dunyo tan olmoqda.

Pedagogika fanining rivojlanishiga Yevropa buyuk pedagog-olimlari hissa qo'shgan, jumladan: italiyalik Vittarino di Feltre, fransuz Fransua Rable, ingliz Tomas More, nemis A.Distruverg, rus K.D.Ushinskiy va boshqalarni ta'kidlab o'tish mumkin.

Bular gumanistik tarbiyani, mustaqil fikrlashni rivojlanishini, ijodni, faolligini, ko'rgazma materiallarni keng foydalanishini, nazariy ta'limni mehnat bilan bog'lanish tarafdori edilar. Ular pedagogik jarayonda o'quvchilarni subyekt deb hisoblar edilar. Talabalarda ham bilim olish jarayonida eng avvalo individual xususiyatlari yetakchi o'rin tutadi.

Adabiyotlar:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning BMT Bosh Assambleyasining 72-sessiyasida so'zlagan nutqi. 24 Iyul 2019 y.
2. O'zbekiston Milliy universitetining Jizzax filiali, o'qituvchi
sardorbekyoldoshyev@gmail.com SHAXSDA QOBILYATLAR RIVOJLANISHINING INDIVIDUAL PSIXALOGIK XUSUSIYATLARI.
3. Иванников В.А. Психологические механизмы волевой регуляции. – М.,1991
4. Haydarov, S. A. (2021). TARIX FANINI O'RGANISHDA FRIGIYA PODSHOLIGINING O'RNINI VA AHAMIYATI. Scientific progress, 1(5). 2